MODDIY VA NOMODDIY AKTIVLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH

Berdiyev G`.N
BuxDTU "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi assistenti
Fayziyev F.E.
BuxDTU "Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar bo'yicha talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ham davlatning qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida va to'liq bajarish ma'lum moliyaviy asosni talab etib kelmoqda. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda moddiy va nomoddiy aktivlarning roli muhim ahamiyatga ega. WIPO hisobotlarida nomoddiy aktivlar, xususan intellektual mulkning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan davlatlarda 30–40%, rivojlanayotgan davlatlarda esa 8–10% ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, iqtisodiy samaradorlik, intellektual mulk, litsenziya, brend, monetizatsiya, raqamli platforma, davlat-xususiy sheriklik, daromad oshirish, investitsiya.

Аннотация. Даже сегодня своевременное и полное выполнение ряда социально-экономических задач государства требует определенной финансовой основы. Роль материальных и нематериальных активов играет важную роль в формировании доходов государственного бюджета. В отчетах WIPO доля нематериальных активов, в частности интеллектуальной собственности, в ВВП составляет 30-40% в развитых странах и 8-10% в развивающихся странах.

Ключевые слова: государственный бюджет, материальные активы, нематериальные активы, экономическая эффективность, интеллектуальная собственность, лицензия, бренд, монетизация, цифровая платформа, государственно-частное партнерство, увеличение доходов, инвестиции.

Annotation. Even today, the timely and complete fulfillment of a number of socio-economic tasks of the state requires a certain financial basis. In the formation of state budget revenues, the role of tangible and intangible assets is of great importance. WIPO reports show that the share of intangible assets, in particular intellectual property, in GDP is 30-40% in developed countries and 8-10% in developing countries.

Keywords: state budget, tangible assets, intangible assets, economic efficiency, intellectual property, license, brand, monetization, digital platform, public-private partnership, income generation, investment.

Kirish

Davlat aktivlari samaradorligining eng muhim ob'ektiv omillaridan biri – bu davlatni o'z funktsiyalarini amalga oshirish uchun muayyan miqdorda aktivlar

ISSN 3030-3907

unumdorligiga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Bo‘sh turgan bino va inshootlar, foydalanilmagan litsenziyalar va intellektual mulk davlat byudjeti daromadlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, moddiy va nomoddiy aktivlardan samarali foydalanish, ularni raqamli va bozor mexanizmlari asosida boshqarish, davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlash va byudjet daromadlarini oshirish uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Davlat byudjeti daromadlarini oshirishda moddiy va nomoddiy aktivlardan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy nazariyada keng o‘rganilgan. Moddiy aktivlar — bino, inshoot, yer maydonlari, infratuzilma obyektlari, nomoddiy aktivlar esa — intellektual mulk, litsenziya, brend, dasturiy mahsulotlar va raqamli platformalarni o‘z ichiga oladi. Samuelson va Nordhausning Economics asarida davlat aktivlarini boshqarish moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida ta’kidlanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

Analitik metod - Davlat aktivlarining mavjud holati, ulardan foydalanish samaradorligi, bozor qiymati va byudjetga keltirayotgan daromadlar tahlil qilindi.

Taqqoslash metodi - O‘zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar — Janubiy Koreya, Kanada, Finlandiya va Singapur — tajribalari bilan solishtirildi.

Statistik tahlil - Davlat balansidagi moddiy va nomoddiy aktivlarning soni, ulardan foydalanish darajasi, ulardan olingan daromadlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Metodik yondashuv - Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida davlat aktivlarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha eng ko‘p foydalanilmayotgan aktivlar quyidagilar:

- Qishloq xo‘jaligi yerlari va bo‘sh turgan sanoat va xizmat ko‘rsatish binolari
- Qishloq xo‘jaligi texnikasi (traktor, kombayn va boshqalar)
- Suv xo‘jaligi infratuzilmasi
- Turizm obyektlari va kommunal-transport infratuzilmasi
- Davlat balansidagi bo‘sh turuvchi aktivlar

Olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:

- ✓ **Moddiy aktivlardan foydalanish darajasi past.**
- ✓ **Raqamli platformalar daromad keltirish jarayonida yetarli ishlatilmayapti.**
- ✓ **Davlat-xususiy sheriklik loyihalari yetarli darajada rivojlanmagan.**
- ✓ **Monetizatsiya mexanizmlari samaradorlik darajasi yuqori emas**.

Prezidentimizning 12.09.2025 yildagi PF-172-son Farmoni bilan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini

ISSN 3030-3907

ta’minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi.[1]

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki davlat balansidagi bino va inshootlar, turli xil moddiy va nomoddiy aktivlarning taxminan **30 foizi faoliyatga jalb qilinmagan**ligi davlat byudjeti uchun potensial daromad yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Masalan Qishloq xo`jaligi yerlarini fermerlar va klasterlarga topshirish bir tomondan davlat byudjetini tejalishiga sabab bo`lgan bo`lsa boshqa tomondan uning natijasida samaradorlik pasayishiga olib keldi. 75-85 % hosildorlik 60-65% ga tushdi. Sababi belgilangan yerlarga meyor bo`yicha 10 nafar ishchi ishlashi kerak bo`lsa amalda 3-4 nafar ishchi ishlamoqda. Texnika texnologiyalarni eskirganligi zamonaviy texnologiyalarni yetishmasligi ko`rsatgichlarni pasayishiga sabab bo`lmoqda.

Albatta shuni tan olib aytish joizki so`nggi yillarda olib borilayotgan isloxotlar mamlakat iqtisodiyotini ancha yuqoriga ko`tarilishiga sabab bo`ldi, aks holda suvsizlik, ekologiyaning yomonlashuvi sharoitida va zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan taminlash ishlari olib borilmaganda hozirgi kunda samaradorlik 20-30% gacha pasaygan bo`lardi. Biroq aholi sonini yildan yilga oshib borishi va talabning ortishi ko`rsatilayotgan taklif salmog`ini kamroq bo`lib ko`rinishiga sabab bo`lmoqda. Quyida qishloq xo`jaliging texnika, suv va mehnat resurslari bilan to`liq taminlashga erishish imkoniyati yetarli emasligi hisobiga samaradorlik ko`rsatgichlari pasayishini kuzatish mumkin.

Qishloq xo`jaligi sohasida 2020-2024 yillar samaradorlik ko`rsatgichlari

Ishlab chiqarish/Yillar	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi(trillion so`mda)	260,3	317,8	364,5	426,3	444,6
Yillik inflyatsiya %	12,9	10,8	12,3	8,8	9,8
Inflyatsiya ulushi (trillion so`mda)	29,7	31,0	39,8	34,5	39,7
Real ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi(trillion so`mda)	230,6	286,8	324,7	391,8	404,9

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.09.2025 yildagi PF-172-son

ISSN 3030-3907

Yillik samaradorlik o`rta hisobda 85% (texnika, suv va mehnat resurslari hisobga) bo`lsa, 100% samaradorlik bo`lgan holatidagi real ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi(trillion so`mda)	271,2	337,4	382,0	461,0	476,4
Yillik olinmagan foyda(trillion so`mda)	40,7	50,6	57,3	69,1	71,5
Jami 5 yil mobaynida olinmagan foyda(trillion so`mda)	**289,2**				

Tahlil jarayonida shuni aniqlash mumkinki, bo‘sh turgan moddiy aktivlarni iqtisodiy aylanishga jalb qilish, intellektual mulk va brendlarni monetizatsiya qilish hamda raqamli platformalarni pullik xizmatlarga integratsiya qilish orqali **davlat byudjeti daromadlarini sezilarli darajada oshirish** mumkin.

Tadqiqot natijalari moddiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligi davlat byudjeti daromadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini yaqqol ko‘rsatdi. Moddiy aktivlarning sezilarli qismi iqtisodiy aylanishga jalb qilinmaganligi davlat byudjetining potensial daromad bazasini qisqartirmoqda. Bo‘sh turgan bino va inshootlar, foydalanilmayotgan yer maydonlari yoki samarasiz ekspluatatsiya qilinayotgan infratuzilma obyektlari davlat moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi omil sifatida qaraladi.

Moddiy va nomoddiy aktivlardan oqilona va samarali foydalanish davlat byudjeti daromadlari barqaror o‘sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson kapitali va uning mamlakat rivoji yo`lida tutgan o`rni, mexnat resurslari joriy aktivlardan unumli foydalanishiga sharoit yaratish, korxonalarda tasischilar sonini oshirish evaziga korxona quvvatini oshirish va mavjud aktivlardan samarali foydalanib eksportni rag`batlantirish yo`lida tinimsiz mehnaq qilmog`imiz lozim.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). Davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). Davlat mulkini boshqarish tizimini isloh qilish va optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. Milliy Statistika Qo‘mitasi. (2023). Davlat aktivlari samaradorligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami. Toshkent.
4. Samuelson, P., & Nordhaus, W. (2020). Economics. New York: McGraw-Hill.
5. OECD. (2022). Public Asset Management and State-Owned Enterprises Report. Paris.
6. World Bank. (2021). Public Sector Asset Management: Global Practices and Efficiency Indicators. Washington, D.C.

ISSN 3030-3907

7. Moliya vazirligi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. (2024). Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish metodik qo‘llanmasi.
8. Qodirov, S., & Abdurahmonov, A. (2021). Davlat aktivlarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
9. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda yangi/erdan foydalanish samaradorligi qanday oshiriladi

ISSN 3030-3907